INSON HUQUQLARINI SHAXSIY MAKONDA HIMOYA QILISH: QONUNIY KAFOLATLAR VA ZAMONAVIY INTERNET HAYOTI

Arziqulov Elboy Azim og'i
Toshkent davlat yuridik universitetiHuquq, jamiyat va madaniyat sho'basidotsent vazifasini bajaruvchisi
UDK 342.721:004.738.5
https://orcid.org/0009-0002-3543-9438
tel.: +998909159406
e-mail: earziqulov94@gmail.com
Mamasodiqov Sanjar Mansurjon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
sanjarmamasodiqov43@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24020878

Annotatsiya: maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida inson huquqlarini shaxsiy makonda himoya qilishning nazariy-huquqiy asoslari hamda milliy qonunchilikdagi kafolatlari tahlil qilingan. Shaxsiy makon tushunchasi mualliflik tahliliy kategoriyasi sifatida talqin etilib, uning shaxsiy va oilaviy hayot, uy-joy daxlsizligi, elektron kommunikatsiyalar maxfiyligi hamda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning tegishli normalari o'zaro qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli muhitda shaxsiy yozishmalarning oshkor etilishi, ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish va texnologik kuzatuv bilan bog'liq xavflarning huquqiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida shaxsiy makon daxlsizligini ta'minlashda amaldagi huquqiy kafolatlarning amaliy samaradorligini oshirish zarurligi asoslangan. Xususan, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi buzilgan hollarda ma'lumotlar subyektini xabardor qilish tartibini qonunchilikda aniqlashtirishga doir taklif ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, shaxsiy makon, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar, raqamli muhit, elektron kommunikatsiyalar, axborot xavfsizligi, konstitutsiyaviy kafolatlar, xalqaro huquqiy standartlar, qonunchilikni takomillashtirish.

PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN THE PERSONAL SPHERE: LEGAL GUARANTEES AND CONTEMPORARY INTERNET LIFE

Abstract: this article examines the theoretical and legal foundations of human rights protection in the personal sphere in the context of globalization and the advancement of digital technologies, as well as the safeguards established under national legislation. The concept of the personal sphere is interpreted as an author-defined analytical category, and its key dimensions related to private and family life, the inviolability of the home, the confidentiality of electronic communications, and the protection of personal data are explored. The study provides a comparative legal analysis of the relevant provisions of the Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights, the

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Constitution of the Republic of Uzbekistan, and the Law of the Republic of Uzbekistan "On Personal Data." Furthermore, the legal aspects of risks arising in the digital environment, including the disclosure of private correspondence, the unlawful use of personal data, and technological surveillance, are examined. The findings substantiate the need to enhance the practical effectiveness of existing legal safeguards for ensuring the inviolability of the personal sphere. In particular, the article puts forward a proposal to clarify, in legislation, the procedure for notifying data subjects in cases of personal data security breaches.

Keywords: human rights, personal sphere, right to privacy, personal data, digital environment, electronic communications, information security, constitutional safeguards, international legal standards, improvement of legislation.

ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В ЛИЧНОМ ПРОСТРАНСТВЕ: ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ И СОВРЕМЕННАЯ ЖИЗНЬ В ИНТЕРНЕТЕ

Аннотация: в статье анализируются теоретико-правовые основы защиты прав человека в личном пространстве в условиях глобализации и развития цифровых технологий, а также гарантии их обеспечения, предусмотренные национальным законодательством. Понятие личного пространства рассматривается в качестве авторской аналитической категории, раскрываются его аспекты, связанные с личной и семейной жизнью, неприкосновенностью жилища, конфиденциальностью электронных коммуникаций и защитой персональных данных. В исследовании проведён сравнительно-правовой анализ соответствующих положений Всеобщей декларации прав человека, Международного пакта о гражданских и политических правах, Конституции Республики Узбекистан и Закона Республики Узбекистан «О персональных данных». Кроме того, рассмотрены правовые аспекты рисков, связанных с раскрытием личной переписки, незаконным использованием персональных данных и технологическим наблюдением в цифровой среде. По результатам исследования обоснована необходимость повышения практической эффективности действующих правовых гарантий обеспечения неприкосновенности личного пространства. В частности, выдвинуто предложение об уточнении в законодательстве порядка уведомления субъекта персональных данных в случаях нарушения безопасности персональных данных.

Ключевые слова: права человека, личное пространство, неприкосновенность частной жизни, персональные данные, цифровая среда, электронные коммуникации, информационная безопасность, конституционные гарантии, международно-правовые стандарты, совершенствование законодательства.

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida inson huquqlarini, xususan, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash masalasi zamonaviy huquqshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Internet kommunikatsiyalarining kengayishi, shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash imkoniyatlarining ortishi, raqamli platformalar hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi insonning shaxsiy hayotini himoya qilishga doir an'anaviy huquqiy mexanizmlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda inson huquqlarini shaxsiy makonda himoya qilish

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

masalasi konstitutsiyaviy huquq, xalqaro inson huquqlari huquqi va axborot huquqining o'zaro tutashgan muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsiy hayot daxlsizligi insonning erkinligi, qadr-qimmati, mustaqil qaror qabul qilishi, shaxsiy va oilaviy munosabatlarini shakllantirishi hamda o'ziga taalluqli axborot ustidan nazoratini ta'minlovchi fundamental huquqdir. Mazkur huquqning mazmuni nafaqat shaxsning hayotiga asossiz aralashuvdan himoyalanishini, balki shaxsga doir ma'lumotlarning qonuniy, maqsadga muvofiq va xavfsiz qayta ishlanishini ham qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, shaxsiy makon tushunchasi ushbu maqolada insonning shaxsiy va oilaviy hayoti, uy-joyi, shaxsiy muloqoti hamda o'ziga taalluqli axborot bilan bog'liq huquqiy himoyaga muhtoj munosabatlar majmuini ifodalovchi tahliliy kategoriya sifatida qo'llanadi. Mazkur tushuncha mustaqil normativ-huquqiy atama sifatida emas, balki tadqiqot predmetini ilmiy jihatdan chegaralashga xizmat qiluvchi mualliflik yondashuvi sifatida talqin etiladi.

Raqamli muhitda shaxsiy makonni faqat jismoniy hudud bilan cheklab tushuntirish yetarli emas. Elektron yozishmalar, messenjerlardagi muloqotlar, geolokatsiya ma'lumotlari, raqamli izlar va shaxsga doir axborotning tarqatilishi ham shaxsiy hayot daxlsizligining muhim jihatlarini tashkil etadi. Bunda axborotning elektron shaklda saqlanishi uning shaxsiy hayotga taalluqliligini istisno qilmaydi. Aksincha, ma'lumotlarning qanday maqsadda yig'ilishi, kim tomonidan qayta ishlanishi, uchinchi shaxslarga uzatilishi va ulardan foydalanishning huquqiy asoslari mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan tahlil va sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot xavfsizligi va insonning mustaqil qaror qabul qilish erkinligini ta'minlash masalalarini yanada dolzarblashtirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur masalalarning xalqaro-huquqiy asoslari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi[1], Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasi[2] hamda shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilishga doir boshqa xalqaro standartlarda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR)[3] shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashda qonuniylik, shaffoflik, maqsad bilan cheklanganlik va ma'lumotlarni minimallashtirish tamoyillarini tizimli ravishda mustahkamlagan.

O'zbekiston Respublikasida ham shaxsiy hayot daxlsizligi, yozishmalar siri, uy-joy daxlsizligi va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish konstitutsiyaviy hamda qonunchilik kafolatlari bilan ta'minlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida "har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega"[4] ekanligi alohida mustahkamlab qo'yilgan. Bu borada "O'zbekiston Respublikasining Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasida ham "davlat shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishini kafolatlanishi"[5] belgilab qo'yilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksining 99-moddasida esa "Shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-

[1] Universal declaration of human rights 1948. https://www.amnesty.org/en/what-we-do/universal-declaration-of-human-rights/

[2] International Covenant on Civil and Political Rights 16 December 1966. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights

[3] Yevropa Parlamenti va Kengashining 2016/679-sonli (Yevropa Ittifoqi) Nizomi. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj/eng

[4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 31-modda. Yangi tahrir 30.04.2023 yil. https://lex.uz/docs/-6445145

[5] O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 27-modda. https://www.lex.uz/uz/docs/-4396419

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro'si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo'lgan huquqi, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug'ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo'lgan boshqa nomoddiy ne'matlar tortib olinmaydi va o'zga usul bilan boshqa shaxsga berilmasligi"[6] alohida keltirib o'tilgan. Mazkur huquqiy normalar shaxsiy hayot daxlsizligini nafaqat konstitutsiyaviy huquq sifatida e'tirof etish, balki uni amalda ta'minlashning davlat tomonidan kafolatlangan mexanizmlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, mazkur normalarning o'zaro uyg'unligi insonning shaxsiy makoniga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, raqamli muhitda shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash hamda buzilgan huquqlarni tiklash uchun zarur huquqiy asos yaratadi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida shaxsiy daxlsizlikni ta'minlash masalasi faqat huquqiy normalarni belgilash bilan cheklanmay, balki texnologik imkoniyatlar, ijtimoiy manfaatlar va inson erkinligi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ham qamrab oladi. Shu bois mazkur muammoni turli fanlar kesishmasida o'rganish uning mohiyatini chuqurroq anglash va samarali himoya mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihat Mary C. Lacity va Lynda Coon tomonidan ilgari surilgan quyidagi yondashuvda: "Zamonaviy sharoitda shaxsiy daxlsizlik (maxfiylik) masalasini hal etishga urinish ko'pincha "murakkab va chigal muammo" (inglizcha: "wicked problem") deb ataladi. 1973-yilda Rittel va Veber tomonidan kiritilgan ushbu tushuncha ijtimoiy jihatdan o'ta murakkab bo'lgan, turli qarashlar, afzalliklar va ta'sir kuchiga ega bo'lgan ko'plab manfaatdor tomonlarni qamrab oluvchi muammolarni anglatadi. Ushbu kitob inson shaxsiy daxlsizligiga oid masalalarni gumanitar fanlar, ijtimoiy fanlar, dizayn hamda STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalari nuqtai nazaridan yoritish orqali, olimlarning ushbu mavzu bo'yicha tushunchalarini kengaytirishni maqsad qiladi"[7] ham o'z ifodasini topadi.

Internet muhitida shaxsiy yozishmalarni oshkor etish, shaxsga doir ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish, raqamli kuzatuv va axborotni ruxsatsiz tarqatish kabi holatlar shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bu borada "onlayn muhitda inson huquqlarini qanday himoya qilish masalasi ilk bor fuqarolik jamiyati tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Axborot jamiyati bo'yicha Butunjahon sammitida – 2003-yilda Jenevada va 2005-yilda Tunisda bo'lib o'tgan tadbirlarda – ko'tarilgan"[8]ligini ham ta'kidlab o'tish joizdir. Mazkur xalqaro sammitlarda onlayn muhitda inson huquqlarini himoya qilish masalasining ko'tarilishi raqamli makonda inson erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari xalqaro miqyosda e'tirof etila boshlaganining muhim ifodasidir. Ushbu jarayon internetni shunchaki axborot almashish vositasi sifatida emas, balki inson huquqlari amalga oshiriladigan va tegishli huquqiy kafolatlar bilan himoya qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy makon sifatida anglashga zamin yaratdi. Shu jihatdan, raqamli muhitda inson huquqlarini himoya qilish davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektorning o'zaro hamkorligini, shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro huquqiy standartlar asosida takomillashtirishni talab etadi. Ayniqsa, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, elektron kommunikatsiyalar maxfiyligini ta'minlash va internetdan foydalanish jarayonida insonning huquq hamda

---

[6] O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi. 99-modda. https://www.lex.uz/uz/acts/-111189

[7] Mary C. Lacity, Lynda Coon. Human Privacy in Virtual and Physical Worlds Multidisciplinary Perspectives. 2024. -P.20. file:///C:/Users/user/Downloads/978-3-031-51063-2.pdf

[8] Human Rights in the Digital Domain. 2.1.2 Protection of Human Rights on the Internet. -P.20. https://www.cambridge.org/core/services/aop-cambridge-core/content/view/05AA35475326FED3F2AA575D7E63AE60/9781009606240AR.pdf/Human_Rights_in_the_Digital_Domain.pdf?event-type=FTLA

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

erkinliklariga asossiz aralashuvlarning oldini olish zamonaviy huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini shaxsiy makonda himoya qilish zamonaviy raqamli muhitda shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligi va inson erkinligini ta'minlash bilan uzviy bog'liq kompleks huquqiy masaladir. Xalqaro huquqiy standartlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga oid xalqaro yondashuvlar mazkur huquqning fundamental mohiyatini ochib beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun va Fuqarolik kodeksining tegishli normalari esa shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning milliy huquqiy asoslarini shakllantiradi. Shu bilan birga, shaxsiy makonni jismoniy hudud bilan cheklamasdan, shaxsiy muloqot va raqamli axborot bilan bog'liq munosabatlarni ham qamrab oluvchi tahliliy tushuncha sifatida o'rganish ushbu huquqning zamonaviy mazmunini kengroq anglash imkonini beradi.

MUHOKAMA

Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, internet muhitida shaxsiy yozishmalarning oshkor etilishi, shaxsga doir ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish va raqamli kuzatuv bilan bog'liq ehtimoliy xavflar mavjud huquqiy kafolatlarni zamonaviy texnologik rivojlanish talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shaxsiy daxlsizlikni ta'minlash ko'plab manfaatlar, texnologik imkoniyatlar va huquqiy talablarning o'zaro ta'siri bilan tavsiflangan murakkab muammo bo'lib, uni hal etishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashning qonuniyligi va shaffofligini ta'minlash hamda buzilgan huquqlarni samarali tiklash mexanizmlarini rivojlantirish inson huquqlarini raqamli makonda himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shaxsiy makonni himoya qilish masalasini insonning o'ziga tegishli axborot, shaxsiy hayoti va kommunikatsiyalari ustidan qonuniy manfaatlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan baholash zarurligini ko'rsatadi. Raqamli muhitda shaxsiy hayotga doir ma'lumotlarning turli platformalarda saqlanishi, uzatilishi va qayta ishlanishi huquqiy himoyaning an'anaviy chegaralarini kengaytirmoqda. Shu jihatdan, shaxsiy makon daxlsizligini ta'minlash insonning faqat noqonuniy aralashuvdan himoyalanishini emas, balki o'ziga taalluqli ma'lumotlar bilan bog'liq jarayonlarning qonuniyligi va oqibatlarini anglash imkoniyatiga ega bo'lishini ham nazarda tutadi. Mazkur yondashuv shaxsiy makonni himoya qilishni alohida huquqiy normalar yig'indisi sifatida emas, balki inson huquqlarini raqamli transformatsiya sharoitida ro'yobga chiqarishning muhim mezoni sifatida talqin etish imkonini beradi.

Tadqiqot asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, shaxsiy makon daxlsizligini ta'minlashda huquqiy normalarning mavjudligi bilan ularning amaliy natijadorligi o'rtasidagi bog'liqlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun kelgusidagi huquqiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi faqat yangi cheklovlar yoki taqiqlarni belgilashdan iborat bo'lmasdan, shaxsning o'z huquqlarini amalga oshirishi, buzilish holatlarini aniqlashi va samarali himoya vositalaridan foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilishi lozim. Bunda inson manfaatlari va texnologik taraqqiyot ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, shuningdek, raqamli muhit ishtirokchilarining huquqiy mas'uliyatini aniq belgilash muhimdir. Binobarin, shaxsiy makon himoyasining samaradorligi qonunchilikning mazmuni

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bilangina emas, balki uning inson qadr-qimmati, erkinligi va huquqiy xavfsizligini amalda qay darajada ta'minlay olishi bilan baholanishi kerak.

Qonunchilikni takomillashtirish borasida quyidagi taklifni ilgari surishni joiz deb topdik:

Taklif. Shaxsga doir ma'lumotlar buzilishi haqida xabardor qilishning qonuniy tartibini belgilash

O'zgartirish kiritilishi taklif etilayotgan hujjat: 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi.

Taklif mazmuni. Qonunning 27-moddasiga shaxsga doir ma'lumotlarning yo'qolishi, ruxsatsiz oshkor etilishi yoki ulardan noqonuniy foydalanilishi natijasida subyekt huquqlariga jiddiy xavf tug'ilganda ma'lumotlar mulkdori yoki operatorining xabardor qilish majburiyatini belgilovchi qo'shimcha qism kiritish taklif etiladi. Unda xabardor qilish muddati, xabarnomada ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar, xavfni kamaytirish choralari va xabardor qilishdan istisno etiladigan asosli holatlar nazarda tutilishi kerak.

Ilmiy-huquqiy asos. Amaldagi Qonunning 27-moddasi ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'rishni belgilaydi, biroq hodisa yuz berganidan keyin ma'lumotlar subyektini xabardor qilishning alohida va batafsil tartibini belgilash masalasi qo'shimcha tahlilni talab qiladi.

Taklif etilayotgan norma shaxsning xavfdan o'z vaqtida xabardor bo'lishi, zararli oqibatlarning oldini olishi va o'z huquqlarini himoya qilishi uchun qo'shimcha kafolat yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Universal declaration of human rights 1948. https://www.amnesty.org/en/what-we-do/universal-declaration-of-human-rights/
2. International Covenant on Civil and Political Rights 16 December 1966. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rightsYevropa Parlamenti va Kengashining 2016/679-sonli (Yevropa Ittifoqi) Nizomi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 31-modda. Yangi tahrir 30.04.2023 yil. https://lex.uz/docs/-6445145
3. O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 27-modda. https://www.lex.uz/uz/docs/-4396419
4. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi. 99-modda. https://www.lex.uz/uz/acts/-111189
5. Mary C. Lacity, Lynda Coon. Human Privacy in Virtual and Physical Worlds Multidisciplinary Perspectives. 2024. -P.20. file:///C:/Users/user/Downloads/978-3-031-51063-2.pdf
6. Human Rights in the Digital Domain. 2.1.2 Protection of Human Rights on the Internet. -P.20.https://www.cambridge.org/core/services/aop-cambridge-core/content/view/05AA35475326FED3F2AA575D7E63AE60/9781009606240AR.pdf/Human_Rights_in_the_Digital_Domain.pdf?event-type=FTLA

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.